

UDC: 347.191:061.2(045)(575.1)

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TUGATISHNING AYRIM TASHKILIY- HUQUQIY MASALALARI

Narimonov Bekzod Abduvaliyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0002-4703-3358
e-mail: tiu-bek@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tushunchasi, turlari, maqsadi, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarni tugatish bilan bog'liq huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil etilgan. Nodavlat notijorat tashkilotni ixtiyoriy tugatish amalda unga ehtiyoj qolmaganda amalga oshiriladi. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotning yuqori organi ham amalda mavjud bo'lmaydi. Bundan tashqari, qonun hujjatlarida tugatish balansining namunaviy shakli ham mavjud emas. Nodavlat notijorat tashkilotni tugatishda kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk tashkilot qatnashchilari (a'zolari), shuningdek, rahbar organlar a'zolari yoki nodavlat notijorat tashkilotlarining xodimlari o'rtasida taqsimlanmasligi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotining a'zolari yoki rahbar organi a'zolari tomonidan mol-mulkning o'zlashtirilishi tashkilotga qo'yilgan ustav, maqsad va vazifalarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Nodavlat notijorat tashkilotining asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, daromad (foйда) olish o'z faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanmaydi va olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaslik qoidasiga mazkur tashkilotni tugatish jarayonida ham amal qilish maqsadga muvofiq. Bu borada yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari, xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkiloti, fond, tugatish komissiyasi, ro'yxatga oluvchi organ, buxgalteriya balansi, ixtiyoriy tugatish, majburiy tartibda tugatish.

НЕКОТОРЫЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ПРЕКРАЩЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Нариманов Бекзод Абдувалиевич,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются понятие, виды, цели ликвидации негосударственных некоммерческих организаций. Проанализированы проблемы, возникающие в правоприменительной практике в связи с ликвидацией негосударственных некоммерческих организаций. Добровольная ликвидация негосударственной некоммерческой организации осуществляется, когда в ней практически отпала необходимость. При этом высшестоящий орган негосударственной некоммерческой организации практически прекратит свое существование. Кроме того, в законодательстве отсутствует типовая форма ликвидационного баланса. При ликвидации негосударственной некоммерческой организации имущество, оставшееся после удовлетворения требований кредиторов, не подлежит распределению между участниками (членами) организации, а также членами органов управления или

работниками негосударственных некоммерческих организаций. Присвоение имущества членами негосударственной некоммерческой организации или членами руководящего органа препятствует реализации уставных целей и задач, поставленных перед организацией. Одной из основных характеристик негосударственной некоммерческой организации является то, что получение дохода (прибыли) не является для нее основной целью деятельности, и правило нераспределения полученного дохода (прибыли) между ее участниками (членами) целесообразно соблюдать даже в процессе ликвидации данной организации. Изучены научные взгляды ведущих ученых в этой области и опыт зарубежных стран.

Ключевые слова: некоммерческая некоммерческая организация, фонд, ликвидационная комиссия, орган реестра, бухгалтерский баланс, добровольная ликвидация, ликвидация в обязательном порядке.

SOME ORGANIZATIONAL-LEGAL ISSUES OF LIQUIDATION OF THE ACTIVITIES OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,
Independent Researcher of
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the concept, types, and goals of liquidation of non-governmental non-profit organizations. The problems that arise in law enforcement practice in connection with the liquidation of non-governmental non-profit organizations are analyzed. Voluntary liquidation of a non-governmental non-profit organization is carried out when it is practically no longer needed. In this process, the higher body of the non-governmental non-profit organization will practically cease to exist. In addition, there is no model form of liquidation balance in the legislation. During the liquidation of a non-governmental non-profit organization, the property remaining after satisfying the demands of creditors should not be distributed among the participants (members) of the organization, as well as members of the governing bodies or employees of non-governmental non-profit organizations. The appropriation of property by the members of the non-governmental non-profit organization or the members of the governing body prevents the implementation of the statutory goals and tasks assigned to the organization. One of the main characteristics of a non-governmental non-profit organization is that it does not make income (profit) as the main goal of its activity, and the rule of not distributing the received income (profit) among its participants (members) is appropriate to be followed even in the process of liquidation of this organization. The scientific views of leading scientists in this field and the experience of foreign countries are studied.

Keywords: non-governmental non-profit organization, foundation, liquidation commission, registry body, balance sheet, voluntary liquidation, mandatory liquidation.

Kirish

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish va ularning faoliyatini to'xtatib qo'yish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarning tarqoqligi, ularni qo'llashda ko'plab noaniqliklar mavjudligi sababli mazkur sohani tadqiq etish ehtiyoji yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dastlab ushbu sohada o'tkazilgan tadqiqotlar va xorijiy davlatlarning tajribasiga e'tibor qaratsak.

L.I. Potyagayevaning fikriga ko'ra, adabiyotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish asoslarining tasnifi yuridik shaxsni tugatishning ixtiyoriy va majburiy usuliga qarab farqlanishidir. Biroq bu tasnif amalda tugatish asoslarining huquqiy tabiatini ochib berishga ham, tugatishning mohiyatini o'zi tushunishga ham yordam bermaydi [1].

A.M. Kornishina va Y.A. Kim tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda NNTlarni tugatishning

ichki mexanizmlari, tugatish komissiyasini tuzish, uning faoliyati, oraliq tugatish moliyaviy hisobotini tayyorlash, xodimlar va kreditorlar bilan hisob-kitob qilish, shuningdek, ushbu sohada NNTlar tomonidan yo'l qo'yiladigan asosiy kamchilik va xatolar tahlil qilingan [2].

T.I. Malexina nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatishda uning buxgalteriya hisobotini tayyorlash va moliyaviy tugatishning o'ziga xos xususiyatlari [3], O.Y. Kalinina davlat tomonidan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish [4], A.A. Melnikov yuridik shaxslarni tugatishni fuqarolik huquqiy tartibga solish masalalari [5], I.I. Spektor esa yuridik shaxslarni tugatishning ma'muriy huquqiy jihatlarini [6] tadqiq etgan.

A. Guilyev Ozarbayjonda nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, mazkur davlatda notijorat tashkilotlar ustavida uni tugatish tartibi va tashkilot tugatilgan taqdirda uning mulkini tasarruf etish tartibi zaruriy belgilanishi lozimligi muammolarni to'liq bartaraf etmaganini ta'kidlaydi [7].

B.S Hadiwinata fikriga ko'ra, Xalqaro valyuta fondining ishlab chiqarishni ratsionalizatsiyalashtirish maqsadida amalga oshirayotgan yuridik shaxslar ittifoqlarini tugatish va qayta tashkil etish siyosati ishsizlar soni oshib ketishiga olib keladi [8].

Germaniya Konstitutsiyasining 9-moddasida belgilangan uyushish erkinligi prinsipi ularni ixtiyoriylik asosida tarqatish huquqini ham kafolatlaydi [9, 716-b.]. Shunga ko'ra, Germaniya Fuqarolik kodeksida ittifoqlarni tarqatish ularning umumiy yig'ilishi a'zolari 4/3 qismining qaroriga ko'ra amalga oshirishi mumkinligi belgilangan. Ittifoq ustaviga umumiy yig'ilishdan boshqa organga uni tugatish bo'yicha qaror qabul qilish vakolatini berish bahsli masalalardan hisoblanadi [10].

Material va metod

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Germaniya Konstitutsiyasida nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish uchun 3 ta asos keltirilgan. Birinchidan, nodavlat notijorat tashkilotining maqsadi yoki faoliyati jinoyat qonunchiligiga zid bo'lsa taqiqlanadi. Ikkinchidan, nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati nemis qonunchiligida "erkin demokratik ijtimoiy tuzum" deb ta'riflanadigan konstitutsiyaviy tuzumga qarshi bo'lsa taqiqlanadi.

Konstitutsiyaviy tuzum deganda, avvalo, Konstitutsiyada bayon etilgan inson huquqlariga hurmat, shuningdek, demokratik tamoyillar, jumladan, davlat mas'uliyati tamoyili, ko'ppartiyaviylik tamoyili va muxolifat tashkilotlarini tuzish va faoliyat ko'rsatish kabi tushunchalar anglashiladi. Uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotining maqsadi yoki faoliyati xalqlar o'rtasida nifoq solishga qaratilgan bo'lsa, nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati taqiqlanadi.

Nohukumat tashkilotini tugatish bo'yicha vakolatli organning qarori ma'muriy hujjat hisoblanadi va Germaniyaning "Ma'muriy protseduralar to'g'risida"gi Qonun asosida mazkur qaror mutanosiblik prinsipiga mos bo'lishi kerak. Shuningdek, ma'muriy sudga ma'muriy hujjatni haqiqiy emas deb topish bo'yicha shikoyat qilish huquqi ham ta'minlanishi lozim [9, 1140-b.].

Shuni alohida qayd etish zarurki, Germaniyada so'nggi o'n yillikda nohukumat tashkilotlari faoliyatini tadqiq qilish bo'yicha bir qator yirik tadqiqotlar (B. Adam [11], C. Schultz, S. Hoffmann, M. Ferdinand [12], S. Freund [13], A. Schon [14], B. Fischer [15], U. Haas, L. Neumayer [16], R. Marx [17], E. Ilgun-Birhimeog'lu [18]) o'tkazilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor NNTlarni ro'yxatga olish bo'yicha Germaniya ma'muriy tartib-taomillarini takomillashtirish, ishonchli boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatiga AKTlarni keng joriy qilish masalalari, ko'ngillilar tashkiloti va ular faoliyatini tashkil qilish masalalari, NNTlar va davlat o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalariga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar, fikrimizcha, Germaniyada bugun-

gi kunda NNTlar sohasida kuzatilayotgan tendensiyalar haqida taassurot uyg'otadi.

AQShda nohukumat tashkilotlarini tugatish dastlab inkor etilgan bo'lsa-da, XX asr o'rtalarida ilmiy muhokamadan so'ng "Korporatsiyalar to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, yuridik shaxslar va ularning uyushmalarini tugatish tartibi mustahkamlangan [19].

AQShda nohukumat tashkilotlarini tugatish Bosh prokuror tavsiyasiga binoan, sud qarori bilan amalga oshiriladi. AQSh qonunchiligida xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatishning bir qator asoslari ko'rsatib o'tilgan. Jumladan [20]:

- nodavlat notijorat tashkiloti noto'g'ri ma'lumot berish orqali tashkil etilgan bo'lsa;
- aldash yoki qonunni buzish yo'li bilan ish yuritish;

- nodavlat notijorat tashkiloti ustavi doirasidan tashqaridagi tadbirlar o'tkazish;

- konstitutsiyaviy tuzumni buzishga urinish.

O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatishning huquqiy asoslari "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" va "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunlarning tegishli moddalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2015-yil 15-yanvardagi 5-son qarori bilan tartibga solinadi.

Endi bevosita mazkur qonun hujjatlari-da NNTlarni tugatish va faoliyatini to'xtatish bilan bog'liq muammolar va amaliyotdagi muammolarni tahlil qilish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasiga ko'ra, jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlash yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashki-

lotlari to'g'risida"gi Qonunida ham *nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibidan oldin* nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish haqida to'xtab o'tilgan [21].

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 34-moddasida nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarini buzgan taqdirda sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin [21].

Qonun hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yishning oqibatlari to'liq yoritilmagan. O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida aks etgan nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish oqibatlari mavhum va gohida bir talab ikkinchi talabni inkor qiladi.

Masalan, qonunning yuqoridagi moddasiga ko'ra, faoliyati to'xtatib qo'yilgan nodavlat notijorat tashkilotiga bank omonatlaridan foydalanish taqiqlansa-da, uning quyida xo'jalik faoliyati, mehnat shartnomalari, o'z harakatlari (harakatsizligi) oqibatida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash va jarimalar to'lashga doir xarajatlar bundan mustasno ekanligi qayd etilgan.

Bu esa amalda nodavlat notijorat tashkiloti orqali deyarli barcha moliyaviy faoliyatni olib borish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, mazkur modda talablariga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotiga ommaviy tadbirlar tashkil etish taqiqlansa-da, boshqa tadbirlar o'tkazish cheklanmagan. Bu ham nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini to'xtatish amalda nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritishiga deyarli kam ta'sir ko'rsatish yoki ayrim moddalarni takomillashtirish zaruratini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining 36-moddasiga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotini tugatish uning yuqori organi qaroriga binoan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) yoki nodavlat

notijorat tashkilotini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan organ davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi adliya organi bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-yanvardagi 5-sonli qarori bilan "Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Qonun hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotini tugatish aynan qaysi sud vakolatiga kirishi bo'yicha norma mavjud emas.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkiloti va uning bo'linmalarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan sud ko'pincha amaliyotda tugatuvchi etib davlat organlari xodimlarini tayinlaydi. Vaholanki, davlat organi funksiyasiga yuridik shaxsni tugatish ishlarini amalga oshirish kirmaydi. Bunday vakolat sud organlariga tegishli bo'lib, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga bu vakolatni berish maqsadga muvofiq emas.

Bundan tashqari, tugatish jarayoni murakkab va ko'pincha yuridik shaxslarning ta'sischi va rahbarlariga bog'liqligi sababli (ularda mavjud bo'lgan muhr va shtamplar yo'qligi, mol-mulki to'g'risidagi, debitor va kreditor qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi, mavjud qarzdorliklarni to'lash manbalari yo'qligi va boshqalar) davlat organlari xodimlariga sezilarli darajada ish hajmini ko'paytiradi.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining ta'sischilari yoki rahbar organ a'zolariga bu kabi majburiyatlar yuklash ularning nodavlat notijorat tashkiloti tashkil qilishdagi mas'uliyatini oshiradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Nodavlat notijorat tashkiloti va uning bo'linmalarini tugatish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy hisobotlar, buxgalteriyaga oid hujjatlarni tayyorlash bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari bir qator murakkablik va chalkashliklarga ham ega ekanini qayd etish zarur.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-yanvardagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish

tartibi to'g'risida"gi nizomning 17–18-bandlariga muvofiq, ixtiyoriy tugatishda kreditorlar tomonidan talablar taqdim etilishi uchun belgilangan muddat tugagach va davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalari, shuningdek, tuzilgan ijro hujjatlari reyestrini hisobga olgan holda tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansi loyihasini tuzadi.

Oraliq tugatish balansi nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organi tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansi tasdiqlangandan keyin besh ish kuni mobaynida tasdiqnomani (qabul qilib olingan sanasi to'g'risidagi belgi, pochta kvitansiyasi, yozma yoki elektron xabar va shu kabilar) olgan holda har qaysi kreditorni uning talablari e'tirof etilgani yoki rad qilgani, e'tirof etilgan talablar summasi haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

Bundan tashqari, mazkur nizomning 25–26-bandlariga muvofiq, kreditorlarning talablari to'liq qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk belgilangan tartibda tasarruf etilgandan so'ng tugatish balansi loyihasi tuziladi. Tugatish balansi nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organi tomonidan tasdiqlanadi va davlat soliq xizmati organiga topshiriladi.

Buning sababi nodavlat notijorat tashkilotini ixtiyoriy tugatish amalda unga ehtiyoj qolmaganda amalga oshiriladi. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organi ham amalda mavjud bo'lmaydi. Bundan tashqari, qonun hujjatlarida tugatish balansining namunaviy shakli ham mavjud emas.

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatishda kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk tashkilot qatnashchilari (a'zolari), shuningdek, rahbar organlar a'zolari yoki nodavlat notijorat tashkilotlarining xodimlari o'rtasida taqsimlanmasligi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotining a'zolari yoki rahbar organi a'zolari tomonidan mol-mulkning o'zlashtirilishi tashkilotga qo'yilgan ustav, maqsad va vazifalarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Nodav-

lat notijorat tashkilotining asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlar (foyda)ni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaslik qoidasiga mazkur tashkilotni tugatish jarayonida ham amal qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2003-yil 12-martdagi 45-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1226, 2003-yil 20-mart) bilan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (15-son BHMS) "Buxgalteriya balansi" tasdiqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1209, 2003-yil 24-yanvar) bilan buxgalteriya balansi shakli tasdiqlangan.

Mazkur buyruqning 4-bandiga ko'ra, moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalar barcha xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar, auditorlik tashkilotlari va birjalar uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 10 kun o'tgandan keyin kuchga kiradi. Boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun mulkchilik shaklidan qat'i nazar, 2004-yil 1-yanvardan kuchga kiradi, sug'urta tashkilotlari va banklar bundan mustasno. Qonun hujjatlari talablariga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari kiritilmagan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatishda oraliq tugatish balansi uchun boshqa shakl bo'lmaganligi bois ushbu shakldan foydalanish mumkin. Biroq bu balans shaklida asosan xo'jalik yurituvchi subyektning aktiv va passivining pul miqdori ifodasi aks ettiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1209, 2003-yil 24-yanvar) bilan tasdiqlangan buxgalteriya balansi shakli nodavlat notijorat

tashkilotlarining xususiyatini to'liq inobatga olmagan. Mazkur buxgalteriya balansi shakllari, asosan, xo'jalik yurituvchi subyektlarga mo'ljallanganligini qayd etish lozim.

Xususan, tekinga ustav maqsadlari uchun olingan mol-mulk, homiylik xayriyalari buxgalteriya balansi passiv qismining qaysi bandiga tushishi aniq emas. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotining tadbirkorlik faoliyatidan kelib tushgan foydani ham bevosita taqsimlanmagan foyda (8 700) qismiga olib borib bo'lmaydi. Chunki buxgalteriya balansi tuzish qoidalariga ko'ra, taqsimlanmagan foyda ta'sisichilarga taqsimlanishi yoki ustav fondiga o'tkazilishi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotlarida esa foyda ta'sisichilar o'rtasida taqsimlanmasligi hamda uning mol-mulki ustav fondi orqali ta'sisichilarga tegishli bo'lmasligi zarur.

Bundan tashqari, yuqoridagi barcha passivlarni buxgalteriya balansi passiv qismining 8800-Maqsadli tushumlariga ham aks ettirib bo'lmaydi.

Shu sababli buxgalteriya balansi passiv qismini nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish darkor.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotining yakuniy tugatish balansi uchun ham alohida namunaviy shakl bo'lmaganligi sababli amaliyotda yuqorida keltirilgan buxgalteriya balansi shakllari namunasidan foydalaniladi.

Xulosalar

Yuqoridagilarga asosan, yangi qabul qilinishi rejalashtirilgan "O'zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi kodeksi loyihasiga quyidagi normalarni kiritish taklif qilinadi.

Birinchi, qonun hujjatlariga nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini to'xtatib qo'yish bilan bog'liq quyidagi tahrirdagi qo'shimchalarni kiritish taklif qilinadi:

"Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish to'g'risidagi sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan uning faoliyati,

ommaviy axborot vositalari muassisi va tahririyati tariqasidagi huquqlari, ustavida nazarda tutilgan maqsad va vazifalari hamda targ'ibot ishlarini amalga oshirish, tadbirlar tashkil etish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mol-mulk va bank hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanish mazkur qarorda nazarda tutilgan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to'xtatib qo'yilgan muddat davomida istisno tariqasida mazkur tashkilot tomonidan xodimlarning o'rtacha ish haqi saqlab qolinishi (mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, lokal va ichki hujjatlarga muvofiq), mol-mulkini saqlash bilan bog'liq to'lovlar, o'z harakatlari (harakatsizligi) oqibatida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga doir xarajatlari amalga oshirilishi mumkin".

Ikkinchi, qonun hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotini tugatish aynan qaysi sud vakolatiga kirishi bo'yicha norma mavjud emas.

"Shunga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotini tugatish sud tartibida amalga oshirilganda, mazkur vazifalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, hududiy adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkiloti tegishlilikiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudi tomonidan amalga oshirilishi taklif qilinadi.

Uchinchi, nodavlat notijorat tashkilotlarining ta'sischilari yoki rahbar organ a'zolariga bu kabi majburiyat yuklash ularni nodavlat notijorat tashkiloti tashkil qilishdagi mas'uliyatini oshiradi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi kodeks loyihasiga quyidagilarni kiritish taklif qilinadi:

"Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan sud qoida tariqasida mazkur nodavlat notijorat tashkilotining (siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari bundan mustasno) ta'sischilari yoki boshqaruv or-

gan a'zolari yoxud rahbarini tugatuvchi etib tayinlaydi.

Hududiy adliya organlaridan ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotining bo'linmalari sud tartibida tugatilayotganda, tugatuvchi etib uning bo'linma rahbari yoki bosh tashkiloti rahbari yoxud bosh tashkilotining boshqa xodimlari tayinlanadi".

To'rtinchi, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-yanvardagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to'g'risidagi nizomdan tugatish balansi nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organi tomonidan tasdiqlanishi to'g'risidagi talabni olib tashlash taklif qilinadi.

Beshinchi, NNTlar faoliyatini to'xtatib qo'yishning asoslarini aniq belgilash, ular tomonidan qonunbuzarliklar sodir etilgan taqdirda faoliyatini to'xtatishning tartib-taomillarini aniqlash maqsadida quyidagi tahrirdagi normani qabul qilish taklif qilinadi:

"Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan, shuningdek, ustav maqsadlariga zid xatti-harakatlar sodir etilgan taqdirda prokuratura organlari yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar ko'rsatilgan qoidabuzarliklar to'g'risida mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organlariga taqdimnoma kiritadi hamda bu qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati prokuratura organlari yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning taqdimnomasi asosida sudning qarori bilan olti oyga cha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining hududida favqulodda holat joriy etilgan taqdirda nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi".

Oltinchi, nodavlat notijorat tashkilotini tugatish jarayoni va bosqichlarini aniq reglamentlashtirish maqsadida yuqorida keltirilgan kodeks loyihasiga quyidagi tahrirdagi normani qabul qilish taklif qilinadi:

“Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish

Nodavlat notijorat tashkilotini (jamoat fondidan tashqari) ixtiyoriy tugatish uning ta’sis hujjatlarida bunga vakolat berilgan yuqori organ qaroriga binoan, majburiy tugatish esa sud qarori asosida amalga oshiriladi.

Ro’yxatdan o’tkazuvchi organ yoki prokuratura organlari:

nodavlat notijorat tashkiloti ushbu kodeks bilan taqiqlangan faoliyatni amalga oshirganda;

nodavlat notijorat tashkiloti o’z faoliyatining to’xtatilishiga sabab bo’lgan qoidabuzarlikni bartaraf etmaganda yoki shu kabi qoidabuzarlik takroran sodir etilgan taqdirda tashkilotni majburiy tugatish to’g’risida sudga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Xalqaro, respublika, hududlararo nodavlat notijorat tashkilotlari hamda xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonasini va filialini tugatish to’g’risidagi qaror O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi, shuningdek, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish to’g’risidagi qaror esa tegishli ravishda Qoraqalpog’iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo’yicha sudi, fuqarolik ishlari bo’yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tomonidan qabul qilinadi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining nodavlat notijorat tashkilotlarini majburiy tugatish to’g’risidagi qarori ustidan shikoyat qilinmaydi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo’yicha sudi, fuqarolik ishlari bo’yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tomonidan qabul qilingan nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish to’g’risidagi qaror ustidan O’zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a’zolari) yoki nodavlat notijorat tashkilotini tugatish to’g’risida qaror qabul qilgan organ tugatish komissiyasini tayinlaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotini sud tartibida majburiy tugatish nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan qonun hujjatlari buzilgan taqdirda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish to’g’risida qaror qabul qilgan sud mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organ a’zolari yoki rahbarini tugatuvchi etib tayinlashi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu kodeksda o’zgacha qoidalar nazarda tutilgan bo’lmasa, kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk tashkilot qatnashchilari (a’zolari), shuningdek, rahbar organlarning a’zolari yoki nodavlat notijorat tashkilotlarining xodimlari o’rtasida taqsimlanmaydi hamda undan nodavlat notijorat tashkilotlarining ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan va (yoki) xayriya maqsadlarida foydalaniladi (sarflanadi)”.

REFERENCES

1. Potyagayeva L.I. Likvidatsiya nekommercheskikh organizatsiy po rossiyskomu grazhdanskomu zakonodatel’sstvu [Liquidation of non-profit organizations under Russian civil law]. Moscow, 2006, p. 14.
2. Kornishina A.M., Kim Yu.A. Osobennosti likvidatsii nekommercheskoy organizatsii [Features of the liquidation of a non-profit organization]. *Izvestiya Instituta sistem upravleniya SGEU – News of the Institute of Control Systems SSEU*, 2018, no. 2. pp. 136–141.

3. Melekhina T.I. Osobennosti likvidatsii nekommercheskikh organizatsiy [Features of the liquidation of non-profit organizations]. *Accounting in Budgetary and Non-profit Organizations*, 2010, no. 12, p. 25.
4. Kalinina O.Ye. Tendentsii reorganizatsii i likvidatsii nekommercheskogo partnerstva [Trends in the reorganization and liquidation of non-profit partnerships]. *Vestnik arbitrajnoy praktiki – Bulletin of Arbitration Practice*, 2013, no. 2. pp. 5–10.
5. Mel'nikov A.A. Grazhdansko-pravovoye regulirovaniye prekrasheniya deyatel'nosti yuridicheskikh lits [Civil law regulation of the termination of activities of legal entities]. PhD thesis. Moscow, 1997.
6. Spektor Ye.I. Razvitiye administrativnogo zakonodatel'stva o gosudarstvennoy registratsii [Development of administrative legislation on state registration]. *Jurnal rossiyskogo prava – Journal of Russian Law*, 2002, no. 7. pp. 36-47.
7. Guilyev A. NGOs in Azerbaijani Legislation as Institutions. *Int'l J. Not-for-Profit L.*, 2011, p. 93.
8. Hadiwinata B.S. Securitizing poverty: the role of NGOs in the protection of human security in Indonesia. Presentation, Singapore, 2004.
9. Rayhert B. Vereins- und Verbandsrecht [Club and association law]. Legal regulation of the activities of unions and associations. 13th ed. 2016, p. 716, 1140.
10. Sauter E., Schweyer G., Waldner W. Der eingetragene Verein [The registered association]. 19th ed. Munchen, CH Beck Publ., 2010.
11. Adam B. Rechnungslegung gemeinnütziger Organisationen. Eine empirische Untersuchung zu Merkmalen und Rechnungslegung gemeinnütziger Organisationen in Deutschland [Accounting for non-profit organizations. An empirical study on the characteristics and accounting of non-profit organizations in Germany]. *Zögu Magazine for public and non-profit companies*, 2020, no. 4. pp. 408-421.
12. Schultz C., Hoffmann S., Ferdinand M. Vertrauensbasierte Organisationen als Grundlage von erfolgreichen digitalen Plattformen für personennahe Dienstleistungen [Trust-based organizations as the basis of successful digital platforms for personal services]. *HMD Practice of Business Informatics*, 2020, pp. 1–16.
13. Freund S. Freiwilligenarbeit in Organisationen. Organisationsentwicklung in Freiwilligenorganisationen [Volunteer work in organizations. Organizational development in voluntary organizations]. Wiesbaden, 2020, pp. 5–29.
14. Schön A. Schuldrechtliche Gesellschaftervereinbarungen in der Gesellschaft mit beschränkter Haftung unter besonderer Berücksichtigung der Rechtsnachfolge [Partner agreements under the law of obligations in the limited liability company with special consideration of legal succession]. Nomo's publisher, 2018, p. 925.
15. Fischer B. Der Bestimmtheitsgrundsatz im Personengesellschaftsrecht [The principle of certainty in partnership law]. Bucerius Law School, 2018.
16. Haas U., Neumayer L. Vereinsgerichte – eine rechtsvergleichende Untersuchung zum deutschen, österreichischen und schweizerischen Recht [Association courts – a comparative study of German, Austrian and Swiss law]. *Recht und Realität – Law and Reality*, 2017, pp. 842–871.
17. Marx R. Vorstandsarbeit im gemeinnützigen Verein: zwischen unentgeltlicher Geschäftsführung und Haftungsrisiko [Board work in a non-profit association: between free management and liability risk]. 2016.
18. İlğün-Birhimeoğlu E. Vereine als Orte der Produktion und Manifestation von symbolischer Ordnung. Symbolische Ordnung und Bildungsungleichheit in der Migrationsgesellschaft [Associations as Places of Production and Manifestation of Symbolic Order. Symbolic order and educational inequality in the migration society]. Wiesbaden, 2016, pp. 343–355.
19. Romanovskaya O.V. Pravovoy status inostrannogo agenta [Legal status of a foreign agent]. *Citizen and law*, 2020, no. 1, pp. 36–48.
20. Martínez-Villarreal A.A. et al. A case series and a review of the literature on foreign modelling agent reaction: an emerging problem [A case series and a review of the literature on foreign modelling agent reaction: an emerging problem]. *International Wwound Journal*, 2017, no. 3. pp. 546–554.
21. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi – Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 1999, no. 5.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.